

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

JALILOV SHOXJAHON XOLBOZOR O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA VINO(ENO) TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.05-Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on economical sciences**

Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li

О'zbekistonda vino(eno) turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy
mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Жалилов Шохжахон Холбазар угли

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития
винного (эно) туризма в Узбекистане.....27

Jalilov Shokhjakhon Kholbazar ugli

Improving organizational and economic mechanisms for the development of wine
(eno) tourism in Uzbekistan.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

JALILOV SHOXJAHON XOLBOZOR O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA VINO(ENO) TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.05-Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Iqt4231 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va
«Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hasanov Shavkat Tursunkulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aliyeva Mahbuba Toychiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nosirov Bahodirjon Zakirovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "13" 11 kuni soat 10⁰⁰
dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066. Tashkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel: (71) 239-
01-49; e-mail: tdu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborat-resurs markazida tanishish
mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066. Tashkent shahri, Islom Karimov
ko'chasi, 49. Tel: (71) 239-01-49; faks: (71) 239-41-23, e-mail: tdu@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil 30 10 dagi 92- raqamli reestr bayonnomasi)



S.U.Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kоти, i.f.d. professor

A.A.Eshstayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asrda iqtisodiyotni barqaror harakatga keltiruvchi soha sifatida baholanmoqda. Bu esa turizm sohasi bo'yicha turistik xizmatlari eksport va import bo'yicha jahon mahsuloti aylanmasida yetakchi uchinchi o'rinni egallaydi¹. Hozirgi vaqtda butun dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotning no-ishlab chiqarish, xususan turizm sohasiga e'tibor yildan yilga ortib bormoqda. Dunyoning ayrim mamlakatlarda turizm sohasi barqaror rivojlanish evaziga ularning yillik daromadlarining o'sish sur'ati 8-10 %ni tashkil etmoqda. Bu soha 2030 yilgacha xalqaro turistlar yiliga dunyo bo'yicha 3,3 %ga ko'payishi va ularning soni 1,8 mlrd kishini tashkil qilishi bashorat qilinmoqda². Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida qishloq aholisi turistik investitsiyalarning past darajasi va ularga yo'naltirilgan reklama aksiyalari tufayli turizmdan kamroq foyda oladi. Shu nuqtai nazardan, ko'plab ishlab chiqaruvchilar, qishloq xo'jaligi jamoalarining turmush darajasini rivojlantirish va turizm sohasining o'sib borayotgan talablari bilan bir qatorda, vinoturizm konsepsiyasi va uning qo'llanilishiga e'tibor berishmoqda.

Jahonda vino turizm xizmatlari XIX asrning 80-yillaridan boshlab butun dunyo sayyohlari orasida mashhur turizm sifatida ko'rildi. Hozirgi kunda vinoturizm ko'plab rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun muqobil daromad manbai sifatida ham yaxshi yo'lga qo'yilgan amaliyotdir. Shuningdek, u Amerika Qo'shma Shtatlari, Italiya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Gresiya, Xitoy, Argentina, Gruziya, Rossiya Federatsiyasining Krasnadar o'lkasida va boshqa ko'plab mamlakatlarda qo'llanilib, qishloq aholisiga ko'plab imtiyozlar bermoqda. Ushbu mamlakatlarda vinoturizm asosan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchilarining turmush darajasini yaxshilash, qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish hamda qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim vositasiga aylangan. Vinoturizm rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy va atrof muhitlarning tarkibiy qismlarini bir biriga bog'laydi. Vinoturizm qishloq hududlarini rivojlanishi, qishloq xo'jaligini, tashrif buyuruvchilar va qishloq aholisi uchun ko'plab iqtisodiy va noiqtisodiy manfaatlarga ega bo'lgan, tabiiy, organik, biologik jihatlariga katta e'tibor qaratgan holda sayyohlar uchun dam olish va hordiq chiqarish faoliyatini o'z ichiga olgan fermer va oilaviy xo'jaliklarni diversifikatsiya qiluvchi strategiya sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda turizmning innovatsion va diversifikatsion yo'nalishlarini rivojlantirishda, vinoturizm yo'nalishini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasi mamlakatga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilishini va yangi ish o'rinlari yaratishning asosiy vositasi sifatida ko'rinmoqda. O'zbekistonda vinoturizm faoliyati hali rivojlanmagan bo'lsa-da, mamlakatda vinoturizmning afzalliklaridan foydalanish uchun qulay sharoitlar mavjud. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va turizm sohalari mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida muhim ahamiyatga

¹ Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

² World Tourism Organization (UNWTO) Tourism highlights report. 2020 edition.

ega. Shu boisdan, mamlakatimizga xalqaro sayyohlarning kelishi sezilarli darajada yildan yilga oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘ZBEKISTON – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-sentabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari va 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 3-avgustdagi PQ-260-son «2023 - 2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 4-maydagi 139-son “Qishloq joylardagi aholiga servis xizmati ko‘rsatishni yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 30-iyundagi 450-son “2017-2019 yillarda Toshkent shahri va Toshkent viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 7-avgustdagi 631-son “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 29-noyabrdagi 972-son “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqotida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining istiqbolli sohalaridan biriga aylanib borayotgan turizm sohasining nazariy va amaliy asoslari hamda uning qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan turizm xizmatlarini rivojlantirishning ayrim nazariy va uslubiy muammolari Kathryn LaTour, Jeannie Cho Lee, Jocelyne Pérard, Gregory V. Jones, Ann C. Noble, Alison McIntos, B.Zanetti, M.Verrascina, F.Licciardo, G.Gargano, M.Sznajder, L.Prezezborska, F.Scrimgeour, C.G.Arroyo, C.Barbieri, S.R.Rich, T.N.Songkhla, B.Somboonsuke³lar kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

³ George E.W., Mair H., Reid D.G. Rural tourism development localism and cultural change. Canada. 2009. -289 p.; Viola K. (2025). Handbook of Wine Tourism. France. 181 p.; Annals of agricultural economics and rural development vol. 99 – no. 3. 2012.; Martha H. Ecotourism and Sustainable Development: who owns paradise? Book. 2nd ed. Island Press, Washington, USA. Chapter 1 & 5. 2008. 172 p.; Saurabh K.D. (2024). Routledge Handbook of Wine Tourism.; Richard M. (2024), The World of Wine - A Beginner’s Guide to Tasting and Pairing.; Steve Ch. (2017). Wine Tourism, Old World Wines, Europe.; Ana M.I. (2017). Ecotourism, agro-tourism and rural tourism in the Europe Union.; Colin

Qishloq hududlarida vinoturizmni barqaror rivojlantirish muammolarini xorijiy va MDH mamlakatlarining yetuk olimlari José Martínez-Falcó, Bartolomé Marco-Lajara va Eduardo Sánchez-García, Abel Duarte Alonso, Seng Kok, Seamus O'Brien, Charters & Ali-Knight, Vecchio & Annunziata, V.I. Kruzhilin, E.A. Luk'yanenko, A.D. Shabalin, L. Kathryn, Ch.L.Jeannie, P.Jocelyne, V.J.Gregory, C.N.Ann, M.Alison, A.D.Chudnovskiy, M.A.Jukova, M.A.Rindach, A.A.Kaganovich⁴lar o'z ilmiy tadqiqot ishlarida alohida e'tibor qaratgan.

Turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish va uning eko-agroturizm, ziyorat turizmi, etnoturizm yo'nalishlarini kengaytirish hamda samaradorligini oshirish muammolari mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlari, jumladan M.Q.Pardaev, I.S.Tuxliev, N.T.Tuxliev, G'X.Qudratov, X.M.Mamatqulov, M.A.Xoshimov, F.K.Kamilova, M.R.Usmonov, N.E.Ibadullaev, Sh.R.Fayzieva, M.P.Boltabaev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, A.A.Eshtaev, T.Doschanov, B.Ro'zmetov, B.Navruz-zoda, M.T.Alieva, S.A.Abduxamidov, Sh.T.Yakubjonova, A.Sattarov, U.R.Matyakubov, S.A.Amonov, va A.N.Norchaev⁵larning ilmiy asarlarida yoritilgan.

M.H., Richard D. M. (2000). Wine tourism in the Mediterranean: A tool for restructuring and development. Italy. 445-465 pp.; Isabelle F. (2000). Wine tourism in France: A paradox. France. 66-80 pp.; Jetske V.W., Emmanuelle N. (2003). The Organization of Wine Tourism in France. 35-43 pp.; Donatella C.C. (2015). Wine tourism in Italy. 29-35 pp.

⁴ Биржаков М.Б. Введение в туризм. -М.-СПб.: Невский фонд, 2000. -305 с.; Биржаков М.Б., Никифоров В.И. Индустрия туризма: ПЕРЕВОЗКИ. -М. -СПб.: Издательский дом Герда, 2007. -528 с.; Буйленко В.Ф. Туризм. Учебник. -Феникс, 2008. -416 с.; Боголюбов В.С. Экономика туризма. -М.: 2005. -151 б.; Горбылева З.М. Экономика туризма. -Учебник практ. пособие. -Минск. БГЭУ, 2007. -167 с.; Здоров А.Б. Экономика туризма. Учебник. -М.: Финансы и статистика, 2004. -127 с.; Сенин В.С. Организация международного туризма: Учебник. -2-е изд., перераб. и доп. -М.: Финансы и статистика, 2003. -400 с.; Лойко О.Т. Туризм и гостиничное хозяйство. Учебное пособие. -Томск, ТПУ, 2005. -152 с.; Чудновский А.Д., Жукова М.А., Сенин В.С. Управление индустрией туризма: учеб. пособ. 2-е изд., -М.: КНОРУС, 2005. -448 с.; Рындач М.А. Винный туризм как инструмент развития сельских территорий. Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2016. № 3. 68-79 с.; Каганович А.А. Винный туризм в развитии сельских территорий (на примере Кранадарской краи). Вестник Санкт-Петербургского государственного экономического университета. 2015. № 4 (94). 66-70 с.

⁵ Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни тахлил қилиш ва баҳолаш. Маърузалар курси. -Самарқанд, СамИСИ, 2006. -137 б.; Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Рисола. -Т.: Fan va texnologiya, 2007. -28 б.; Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Турфирмалар молиявий хўжалик фаолияти таҳлили. Маърузалар курси. -Самарқанд, СамИСИ, 2011.-216 б.; Тухлиев И.С., Пардаев М.Қ. Туризм бозорининг шаклланиши, ривожланиши ва ўзига хос хусусиятлари. -Т.: Ноширлик ёғдуси, 2010. -74 б.; Тухлиев И.С., Ҳайтбоев Р., Ибодуллоев Н.Э., Амриддинова Р.С. Туризм асослари. Ўқув қўлланма. -Самарқанд: СамИСИ, 2010. -272 б.; Тухлиев И.С., Қудратов Ғ.Ҳ., Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик. -Т.: Иқтисод-молия, 2010. -264 б.; Tuxliyev I.S., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) -Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. -424 б.; Тухлиев Н.Т., Абдуллаева Т. Менежмент и организация бизнеса в Республике Узбекистана. -Т.: ГНИ, 2006. -368 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. -Т.: 2006. -424 с.; Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. -Т., 2001. -208 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Услуги, технологии и продукты в туризме. -Т.: Гос. Науч. Изд-во Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. -624 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Формальности в системе в туризме Республики Узбекистоан. -Т.: Гос. Науч. Изд-во Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007 -504 с.; Маматкулов Х.М. Туризм инфратузилмаси. Маъруза курси. -Самарқанд, СамИСИ, 2009. -256 б.; Маматкулов Х.М., Бектемиров А.Б., Тухлиев И.С., Норчаев А.И. Халқаро туризм. Дарслик. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009. -192 б.; Маматкулов Х.М. Туризм ва сервисга оид изоҳли луғат. -Самарқанд, СамИСИ, 2010. -362 б.; Ҳошимов М.А. Ўзбекистон экологик туризми. Монография. -Самарқанд, Зарафшон нашриёти ДК, 2009. -220 б.; Камилова Ф.К., Камилов З.К. Халқаро туризм бозори. Ўқув қўлланма. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2011. -143 б.; Усмонов М.Р.

Yuqoridagi xorijlik va mamlakatimiz olimlarning turizm xizmatlar sohasidagi ilmiy izlanishlarining sohaning bugungi kundagi rivojlanishidagi ulkan hissalarini inobatga olgan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida, xususan, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichi talablari doirasida qishloq hududlarini va shu bilan birgalikda agrar sohada vinoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va samaradorligini oshirish masalalari chuqur va keng ko'lamda alohida tadqiq etilmagan.

Mamlakatimizda, ayniqsa uning qishloq hududlarida vinoturizm sohasi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ammo qishloq hududlarda vinoturizm xizmatlarini rivojlantirish uchun uning o'ziga xos jihatlarini belgilash, ularni guruhlash, turizm ob'ektlarini tahlil qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlash masalalari bugungi kunda ob'ektiv zaruratga aylandi. Bular, o'z navbatida qishloq hududlarida vinoturizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan mavzuda tadqiqot olib borishga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi, qishloq hududlarida vinoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Vino turizm” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uni rivojlanishini nazariy jihatdan asoslash;

qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishda vino turizmning o'ziga xos xususiyatlarining va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslash;

Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришнинг минтакавий хусусиятлари (Самарқанд вилояти мисолида). География фан. номзоди дис. афтореферати. -Т.: ЎзМУ, 2003. -25 б.; Ибадуллаев Н.Э. Туристик ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имкониятлари (Самарқанд вилояти мисолида). Иқтисод фанлари номзоди диссертация афтореферати. Самарқанд, СамИСИ, 2010. -24 б.; Файзиева Ш.Р. Ўзбекистонда туризм ривожланишининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Номзодлик диссертацияси. -Т.: ЎзМУ, 2006.; Boltabayev M.P, Tuxliyev I.S. Turizm: nazariya va amaliyot. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2018, -400 б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари // Монография. –Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2016. 184 б.; Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси. -Т.: ТошДУ, 2017.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). Doktorlik dissertatsiyasi. -Samarqand, SamISI, 2019.; Navruz-zoda B. va boshqalar. Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. -T. 2017. –156 б.; Doschanov T., Ro'zmetov B. Turizmni rivojlantirishda muzeylar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari. -Samarqand, SamISI, 2021.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlarini (O'zbekiston Respublikasi misolida): i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –S.: 2020. -275 б.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc. dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2021.; Yakubjonova Sh.T. Agroturizmning tabiiy geografik jihatlarini (O'zbekiston misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. Toshkent. ToshDPU, 2018. -39 б.; Abduxamidov S.A. Mintaqaviy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. Samarqand. SamISI, 2021. -62 б.

vino turizmni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o'rganish va ularning ilg'or tajribalarini mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni hozirgi holatini tahlil qilish;
respublikada vino turizmni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va muammolarining hozirgi holatini tahlil qilish;

respublikada vino turizmni rivojlantirishda "vino yo'li" mexanizmini ishlab chiqish;

qishloq hududlarida vino turizmni rivojlantirishda "Vinariyaga ekskursiya" mexanizmini ishlab chiqish;

Toshkent viloyati qishloq hududlarida vino turizmni rivojlantirishda "Toshkentga sayohat" marshrutini ishlab chiqish;

respublikada vino turizmni rivojlantirish usullarini ekonometrik modellashtirish asosida takomillashtirish va empirik tahlilini o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining qishloq hududlarida vinochilik firmalar, fermer xo'jaliklari va turistik resurslar olingan.

Tadqiqotning predmetini qishloq hududlarida vino turizm xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida monografik kuzatuv, iqtisodiy va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, SWOT tahlil, PEST tahlil va ekonometrik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«vino turizmi» tushunchasining iqtisodiy mazmuni oddiy sayohat emas, balki tajribalarni birlashtiruvchi, (gastronomik, etnografik, agro turizm, ommaviy tadbir turlari bilan bog'liq bo'lgan) ekologik hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirish jarayonini ifodalaydigan faoliyat nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

Toshkent viloyatida vinoturizmni rivojlantirish bo'yicha, jumladan fermerlarning yillik daromadini vinoturizmga ko'ra oshirish, sayyohlik agentliklari va fermerlar aloqalarini chuqur integratsiyalash, vinoturizm mavsumiga mos agrar tadbirlarni tashkil etish asoslangan hamda fermer vinoturizm samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni "Logistic regression model" ga ko'ra aniqlash takomillashtirilgan;

qishloq hududlarida yetishtirilgan ekologik toza mahsulotlardan tayyorlanadigan mahsulotlardan taomlar tayyorlashda vinoturistlar bevosita ishtiroki bo'yicha "Vinariyaga ekskursiya" jahon amaliyoti, qishloq tarixiy landshaftlari va milliy bayramlarga ko'ra takomillashtirilgan;

mintaqa turistik resurslaridan samarali foydalanish va vinoturizmni jadal rivojlantirish bo'yicha "Toshkentga sayohat" turistik marshurit (etnografik turizm, eko-agroturizm, madaniy turizm, gastronomik turizm va vinoturizm) tashkil qilish va ushbu marshuritga innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan vinochilik firmalari va ko'p tarmoqli ilg'or fermer xo'jaliklarini kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyatida fermer xo'jaliklarining vinoturizm faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillari ekonometrik model funksiyasidan

foydalanilgan holda aniqlash metodikasini amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar asoslangan;

qishloq joylardagi turistik imkoniyatlardan vinoturizmni barqaror rivojlantirishda foydalanish tartibi, uning ijobiy va salbiy jihatlari hamda umumiy turizmga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari, uning qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni ochib berilgan;

qishloq hududlarida vinoturizmni rivojlantirish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan alohida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni ajratgan holda har bir yo'nalish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy manbaalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi hamda Toshkent viloyatining ma'lumotlaridan olingani, qo'llanilgan metodologik yondoshuvlarning maqsadga muvofiqligi, taklif va tavsiyalarning sinovdan o'tkazilgani va vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan qabul qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik - uslubiy asoslar, qishloq hududlarida vino turizmni samarali rivojlantirishga, turizm industriyasini modernizatsiya qilish va sayyohlar tashrifini oshirish strategiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasida qishloq hududlarida turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish, vino turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga, hududdagi turistik obyektlar va ushbu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar faoliyatini samaradorligini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda hamda Toshkent viloyatida vinoturizmni rivojlantirish, uzumchilik rivojlangan qishloq hududlaridagi fermer va oilaviy xo'jalikda "vinariyalar", "vino yo'llari" tashkil etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq hududlarida vinoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish asosida:

qishloq hududlarida vino turizm oddiy sayohat emas, balki tajribalarni birlashtiruvchi, (gastronomik, etnografik, agro turizm, ommaviy tadbir turlari bilan bog'liq bo'lgan) ekologik hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirish jarayonini joriy etishga ko'ra tashrif buyuruvchilarni ekologik sayohat turlariga maqsadli marshuritlar bo'yicha keng jalb qilishni tizimli tashkil qilish va vinotur, erkin yoki imtiyozli gidlarni joriy qilish kabilarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi bo'yicha tavsiyalar "Turizmni rivojlantirishda agrar tadbirlarni tashkil etish"ni ishlab chiqishda

foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 06/26-4-06/970-sonli va Parkent tumani Qishloq xo'jaligi bo'limining 2025-yil 25-iyundagi № 01/151-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur tavsiyaning amaliyotga joriy qilinishi maqsadli ekomarshrutlarni tashkil qilishga ko'ra vinoturistlar sonining ko'payishi va xizmat ko'rastish sifatini oshirishga xizmat qilgan;

Toshkent viloyatida vinoturizmni rivojlantirish bo'yicha, jumladan fermerlarning yillik daromadini vinoturizmga ko'ra oshirish, sayyohlik agentliklari va fermerlar aloqalarini chuqur integratsiyalash, vinoturizm mavsumiga mos agrar tadbirlarni tashkil etish asoslangan hamda fermer vinoturizm samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ("Logistic regression model") ko'ra aniqlash kabi takliflar "Toshkent viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida vinoturistlar sonining ko'payishi bilan bog'liq ichki imkoniyatlar aniqlangan va ulardan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo'lib xizmat qilgan;

qishloq hududlarida yetishtirilgan ekologik toza mahsulotlardan tayyorlanadigan mahsulotlardan taomlar tayyorlashda vinoturistlar bevosita ishtiroki bo'yicha "Vinariyaga ekskursiya" jahon amaliyoti, qishloq tarixiy landshaftlari va milliy bayramlarga ko'ra takomillashtirish bo'yicha taklif "Toshkent viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur taklifning joriy etilishi qishloq hududlariga vinoturistlar tashrifining ko'payishi, vinoturistlarning qo'shimcha talabini qondirish, tarixiy landshaftlar va milliy bayramlar mohiyatini targ'ib qilish, vinoturizm samaradorligini oshirish va fermer xo'jaliklarining qo'shimcha daromadga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan;

mintaqa turistik resurslaridan samarali foydalanish va vinoturizmni jadal rivojlantirish bo'yicha "Toshkentga sayohat" turistik marshuriti (etnografik turizm, ekoturizm, gastronomik turizm va vinoturizm) va ushbu marshurutga innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan ko'p tarmoqli ilg'or fermer xo'jaliklarini kiritish bo'yicha taklif Toshkent viloyati "Parkent tumanining turizm va qishloq xo'jaligi salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi mintaqa fermer xo'jaliklari faoliyatini vinoturizm orqali diversifikatsiyalash va vinoturizmni rivojlantirishga, qishloqlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va vinoturistlar sonini ko'paytirishga, vinoturizm faoliyati bilan bog'liq qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'la foydalanishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shulardan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Eno(vino)turizmni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida vino turizm salohiyatining umumiy tarkibini o'rganishda ilmiy tomonlama ko'rib chiqish va tahlil qilish muhim jihat hisoblanadi. Bunda vino turizm hudud salohiyatidan kelib chiqib umumiy tarkibiy qismi sifatida vino turizm obyekti (turist) subyektiv va o'zgaruvchan xususiyatga ega ehtiyojlarni aniqlash lozim bo'ladi. Shu boisdan, ushbu bobda sohani o'rganishda ilmiy yondashuv imkoniyatlarning umumiy vino turizm salohiyatini shakllantirish uchun asosiy ilmiy va amaliy, ijtimoiy-iqtisodiy va xalqaro tajribalar keltirib o'tilgan.

Ilmiy izlanishlarimiz bo'yicha quyidagi mualliflik tarifini ishlab chiqdik.

Vino turizm – bu oddiy sayohat emas, balki tajribalarni birlashtiruvchi, (gastronomik, etnografik, agro turizm, ommaviy tadbir turlari bilan bog'liq bo'lgan) ekologik hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirish jarayonidir.

Shunday qilib, Vino turizm jihatlarini aniqlash jarayonida uning boshqa turizm turlari bilan bog'liqlikligi va vinoturizm sifatida namoyon bo'lishi va shakllanish bosqichlarini aniqlash mumkin bo'ladi (1-rasm).

1-rasmdan ko'rinadiki, vinoturizm afzalliklari: infratuzilmani rivojlantiradi, ish va daromad yaratish, qishloq hududlarini rivojlantirish, fermer xo'jaliklarini samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi biznesining barqarorligi, urbanizatsiyani kamaytirish, madaniy merosni asrash va mahsulot marketingi.



1-rasm. Qishloq hududlarida vinoturizmni rivojlantirishning afzalliklari⁶.

1-rasmga asosan, vinoturizm turizm sohasining bir tarmogʻi sifatida shakllanib, u agrar muhit, agrar mahsulotlar yoki agrar turar joylar bilan bevosita bogʻliq boʻlgan turistik mahsulotlarni anglatadi. Turizmning ushbu turi mehmondoʻstlik xizmatlarini (masalan, toza hududda va tabiat manzarasidagi turar joylarda tunash va u yerda eko mahsulotlar bilan nonushta qilish, oziq-ovqat xizmatlari, degustatsiya, toʻylar va shaxsiy ziyofatlarni oʻtkazish, qishloq hududlaridagi uylarda va fermer xoʻjaliklarida dam olish) taqdim etishi mumkin. Rekreatsion faoliyat (uzumzorlarga sayl, dala chetlarida vilosopit, ot minish, oʻzi uzum terish, degustatsiya qilish), shaxsiy dala tajribalariga eʼtibor qaratiladigan qishloq xoʻjaligi taʼlim va oʻquv seminarlari, shuningdek, turli qishloq xoʻjaligi bogʻliq faoliyatlar (masalan, uzumzorlar, bogʻdzorlar) va boshqa xoʻjalik faoliyatlarida dam olish.

Dissertatsiyaning **“Oʻzbekistonda vinoturizmni rivojlanish holati tahlili va dinamikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Oʻzbekiston Respublikasida vino turizmni hozirgi holati tahlili va rivojlantirishining asosiy muammolar va ularning yechimlari boʻyicha tahlillar oʻtkazilishi hamda eng maqbul yoʻlini belgilash lozim boʻladi.


Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqish, hudud aholisini bandligini taʼminlash va yashash farovonligini oshirish uchun bir qancha amaliy ishlar Prezident va hukumat qarorlari ishlab chiqilib, hayotga izchillik bilan tatbiq etilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining turizm salohiyatidan samarali foydalanish borasida ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda

⁶ Muallif ishlanmasi.

qishloq hududlarida vino turizmning imkoniyatlarini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish va pirovardida turizm iqtisodiyotining drayver sohalaridan biriga aylantirish muhim hisoblanadi.

Shuning bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi hududlarida vinoturizm faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fermer va oila xo‘jaliklari tahlil qilindi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra Respublikaning Samarqand viloyatida 9 ta Toshkent viloyatida 7 ta Farg‘ona viloyatida 2 ta va Buxoro viloyatida 1 ta vinoturizm obyektlari borligi aniqlandi.(2-rasm).

Toshkent viloyati Qibray tumani Uzumfermer oilaviy vino turizm obyekti. Toshkent shahar markazidan 17 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, ferma 21 gektar maydonda ega va 100 ortiq vinolarini ishlab chiqaradi. Vino turistik fermada mahalliy va xorijiy turistlarga Yaponiya, Xitoy, Italiya va Rossiyaning atmosferasini ko‘rish imkonini beradi. Vino turistik fermada 10 kishilik mehmonxona, restoranda (Yevropa taomlari), o‘zbek vinochiligiga sho‘ng‘ish uchun degustatsiya omborlari, ekskursiya uchun uzumzorlar va tug‘ilgan kun, turli tadbirlar uchun kerakli sharoitlar yaratilgan.




2-rasm. Respublika hududlarida vinoturizm ko‘rsatkichlari kartasi⁷.

2020-2024 yillar orolig‘ida xo‘jalikning umumiy yer maydoni 21 gektarni tashkil etgan. Ishchilar soni 2024 yilda 27 nafarda 2020 yilga nisbatan olganda 9

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

nafarga ortgan - bu ishlab chiqarish ko'lamining kengayganini bildiradi. Vino ishlab chiqarish hajmi 2020 yildagi 34 tonnadan 2024 yilda 100 tonnagacha oshgan yiliga o'rtacha 3 barobarga oshgan. Saqlash quvvati zamonaviy saqlash inshootlari hajmi oshirilgan bo'lib 2020 yildagi 25,5 tonnadan 2024 yilda 75 tonnaga oshganini ko'rishimiz mumkin. Hosildorlik 1 gektardan olinadigan hosil 1,62 t/ga dan 4,76 t/ga gacha o'sgan - bu texnologik va agrotexnik choralarning samarasidir(3-rasm).




3-rasm. Uzumfermer vinochilik xo'jaligining ko'rsatkichlar dinamikasi, 2020-2024 yillar⁸

Toshkent viloyatida turizmning quyidagi asosiy turlari xalqaro va mahalliy sayyohlar orasida juda mashhur. Turistlarning 32 %i Tabiat bilan bog'liq bo'lgan (eko-agroturizm va h.k.), 28 %i esa rekreatsion turizm, 11 %i esa vino turizmda qatnashishga harakat qiladi. Mahalliy sayyohlarning aksariyati eko-agroturizmga e'tibor berishni istasa, ularning oz qismi so'nggi o'n yillikda turizmning gastronomik va etnoturizm turlariga qiziqish bildirmoqda.


Turizmning bu shakllari tabiat bilan bog'liq va ular Toshkent viloyatida turizm sohasida yangi va yosh faoliyatdir. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayot mamlakatlarida turizmning bu shakllari allaqachon shakllangan va ular ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ahamiyatini sezilarli darajada aks ettirgan. Toshkent viloyatida vinoturizm xizmatlariga turistlarning atiga 3,4 %i jalb qilingan. Albatta, bu ko'rsatkich boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda juda kam ulushni tashkil etadi.

⁸ Uzumfermer oilaviy xo'jalik fernasining 2020-2024-yillardagi ma'lumotlari asosida muallif hisob tahlillari.



4-rasm. Toshkent viloyatidagi vinoturizmning bugungi holati⁹.

Yuqorida ta’kidlab o’tilgan vino turizm salohiyatidan foydalanish darajasini belgilovchi ko’rsatkichlarda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko’rsatkichlari bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan holda tahlil qilinadi.




5-rasm. Toshkent viloyatida vnoturizmning talab va taklif modeli¹⁰.

⁹ O‘zbekiston Milliy Statestika Qo‘mitasining 2024-yildagi Yillik statistik to‘plami ma’lumotlari asosida muallif hisob tahlillari.

¹⁰ Muallif tadqiqotlari va xorijiy manbalarni boyitish asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur rasmda, Toshkent viloyatida vinoturizmni rivojlantirishni talab va taklif nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Turizm sohasida vinoturizm faoliyati 6-rasmda ko'rsatilganidek, vizual tarzda talqin qilingan. Qishloq xo'jaligi va turizm sohalarining birlashuvidan sodir bo'lgan yangi yo'nalish vinoturizm hosil bo'ladi. Vinoturizmni rivojlantirishni talab va taklif tomonidan qarash mumkin. Ushbu tadqiqotda taklif tomonidan o'rganildi va asosiy e'tibor nima uchun fermerlar vinoturizmni taklif qilishiga qaratilgan. Chunki, fermerlar o'z xo'jaligida ko'rsatishi mumkin bo'lgan vinoturizm mahsulotlari va xizmatlarini vino tur, vinariyalar, vino festival, uzumzorlar, degustatsiya va qishloq hayot yo'nalishlariga ajratildi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha vinoturistlarning qishloq hududlarida dam olish, ta'lim, tajriba, mehmondo'stlik xizmatlari va fermer xo'jaliklarida to'g'ridan-to'g'ri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish va fermer sotish jarayonlarini qamrab oladi.

Tadqiqotimiz bo'yicha Toshkent viloyatida vinoturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash maqsadida fermer xo'jaliklarida so'rovnoma o'tkazdik. Ushbu so'rovnomada Toshkent viloyati Parkent tumanining 300 ta fermer xo'jaligi rahbarlari ishtirok etdi. Tuman fermer xo'jaliklari rahbarlaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra 68,3 % fermer xo'jaligi rahbari vinoturizm haqida tushunchaga ega 32 % fermer xo'jaligi rahbari vinoturizm haqida tushunchaga ega emasligi aniqlandi (6-rasm).



6-rasm. Toshkent viloyatida fermerlarning vinoturizm haqida bilish darajasi(n=300)¹¹.

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Toshkent viloyatida vinoturizmni rivojlantirishning SWOT tahlili¹²

Kuchli tomoni	Zaif tomoni	Imkoniyatlari	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> • viloyatning markazga yaqinligi; • turistlar tashrifining yuqoriligi; • viloyatning barcha hududlarida eko-agroturizm, etnoturizm va vinoturizm faoliyati uchun resurslarning mavjudligi; • viloyatning turizm va qishloq xo'jalik sohalari uchun tabiiy resurslarning yuqori darajadali va ularga boyligi; • viloyatning yetarli infratuzilmaning mavjudligi va ularning qulayligi; • viloyatning bioxilma-xillikning jozibadorligi. 	<ul style="list-style-type: none"> • viloyatda mavjud turizm resurslaridan samarali foydalanish yetarli darajada emasligi; • vinoturizm bilimlari darajasini sustligi; • vinoturizm xizmatlarini rivojlantirish borasida mavjud infratuzilmaning shakllanmaganligi; • vinoturistik marshrutlar haqidagi axborotlarning yetarli darajada emasligi; • viloyatda xorijiy tillarda muloqat qilishining pastligi; • vinoturizm faoliyatini o'rganish bo'yicha treninglarni ishlab chiqilmaganligi; • turfirmalarining fermer xo'jaliklari bilan munosabatini mavjud emasligi. 	<ul style="list-style-type: none"> • viloyatda tabiiy flora va faunalarning ko'pligi va ulardan vinoturizmni barqaror rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi; • viloyat asosiy turizm markazlaridan biri ekanligi; • yangi turizm yo'nalishlarini shakllantirish va maxsus marshrutlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengligi; • viloyatda vinoturizm sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarining yuqoriligi; • viloyat aholisining turizm va qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarini mavjudligi; • vinoturizm sohasidagi infratuzilmani rivojlantirish uchun investitsiya mablag'larini jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi; • vinoturizm xizmatlari bozorini kengaytirish imkoniyatlarining mavjudligi; • viloyatda fermer xo'jaliklarining qo'shimcha daromad oshirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • viloyatning betakror tabiiy manzarali hududlariga va bioxilma-xilligiga zarar yetkazish ehtimolining yuqoriligi; • viloyatning hududlarida chiqindilarni tarqatish va atrof-muhitning zaifligi; • qishloq hududlaridagi sokin turmish tarzining pasayishi; • qishloq hududlariga tashrif buyuruvchi turistlar tomonidan an'anaviy madaniyat va mahalliy urf-odatlarini o'zgartirish; • qishloq hududlarida mahalliy aholi va turistlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tez-tez buzilishi va jinoyatlarni ko'payishi; • vinoturistik sayohatlarning mahalliy aholi o'rtasida tegishli va yetarli sharoitda ta'minlanmaganligi.

¹² Toshkent viloyatidagi turistik imkoniyatlar o'rganish natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida vinoturizmning faoliyatlarini rivojlantirish bilan qiziqayotgan va ayrim turlarini taklif qilish istagida bo‘lgan 300 nafar respondentning demografik xususiyatlari keltirib o‘tilgan. Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligi sohasi bugungi kunda ham asosan erkaklar ustunlik qilganligi sababli, bizning tadqiqotimiz doirasida ham respondentlarning (fermerlarning) ko‘pchiligini erkaklar (253 nafari yoki 84,3 %) va 31 dan 50 yoshgacha bo‘lganlar (242 nafarni yoki 80,7 %) fermerlar tashkil etadi. Fermerlarning 33,7 foizi oliy darajali diplom yoki ilmiy darajaga ega, 66,3 foizi o‘rta maxsus darajasiga ega bo‘lgan fermerlar. Ushbu tadqiqot respondentlarining ijtimoiy xarakteristikasi jinsi, yoshi va ma‘lumotiga ko‘ra Toshkent viloyatidagi fermerlar salohiyatga ega kadrlar hisoblanadi. Viloyatda fermer xo‘jaliklarida vinoturizmni taklif qilgan respondentlar orasida ham erkak fermerlar ulushi yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

2-jadval

Bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarning tavsifi¹³

O‘zgaruvchilar	O‘zgaruvchilarning tavsifi
Bog‘liq o‘zgaruvchi	
Vinoturizm (y)	Vinoturizmga qiziqqan fermer = 1 Vinoturizmga qiziqmagan fermer = 0
Mustaqil o‘zgaruvchilar	
Fermer_jinsi (x_1)	Fermerning jinsi: erkak = 1; ayol = 0
Fermer_yoshi (x_2)	Fermerning yoshi
Fermer_yoshi ² (x_3)	Fermer yoshining kvadrati
Fermer_ma‘lumoti (x_4)	Fermerning ma‘lumoti: O‘rta maxsus = 1 Bakalavr = 2 Magistr = 3 Boshqa = 4
Fermer_log-masofasi (x_5)	Fermer xo‘jaligining Toshkentdan uzoqlikdagi masofasi logarifmli, km
Fermer_ixtisosligi (x_6)	Fermer xo‘jaligining ixtisosligi
Fermer_log-daromadi(x_7)	Fermer xo‘jaligining yillik daromadi logarifmli, mln so‘m

Mazkur jadvalda ham bog‘liq o‘zgaruvchi, ham mustaqil o‘zgaruvchilar tasvirlangan. Toshkent viloyatida to‘plangan so‘rov natijasida olingan fermer xarakteristikasi o‘zgaruvchilari ko‘rib chiqilayotgan va empirik baholash uchun foydalaniladigan mustaqil o‘zgaruvchilari ijtimoiy-iqtisodiy omillardan iborat. Fermerlarning vinoturizm faoliyatiga moslashishiga ta’sir etuvchi mustaqil o‘zgaruvchilar avval o‘rganilgan tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari asosida tanlangan. Bizning tadqiqotimizning empirik modelida fermerning jinsi, fermerning yoshi, fermerning ma‘lumoti, fermer xo‘jaligini masofasi, fermer xo‘jaligini ixtisosligi va fermer xo‘jaligi daromadi mustaqil o‘zgaruvchi sifatida tanlab olingan.

¹³ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Olingan natijaga ko'ra, Toshkent viloyati fermerlarining vinoturizm faoliyatida ishtirok etishiga fermer xo'jaligi rahbarining jinsi(x_1) ni, yoshi(x_2) ni, yoshi kvadratlangan(x_3) ni va fermer xo'jaligini log masofasi(x_4) ni ta'siri 1 %lik statistik ahamiyatga ega. Ushbu omillarning x_1 -omili fermer xo'jaliklarini rahbarlik qilishda ayollar sonining o'sishi vinoturizm faoliyati boshlashi va shug'ullanishga bo'lgan ehtimolini 178,5 %ga oshiradi, fermer xo'jaligi rahbarining yoshi(x_2) 46,6 %ga va fermer xo'jaligi rahbarining yoshini kvadratlangan(x_3)ni 0,5 %ga kamaytirmoqda. Mazkur statistik tahlil natijalariga ko'ra, fermer xo'jaliklarining shahar markazidan qancha darajada uzoq bo'lsa fermer xo'jaliklarida vinoturizm faoliyatini boshlash va unga bo'lgan qiziqishini susaytiradi. Viloyatda fermer xo'jaligi rahbarlarining ma'lumoti (x_6) va ularning daromadlari(x_7) 5 %lik statistik ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Vinoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari va asosiy yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlaridagi islohotlarning amalga oshirilishi va zamonaviy turizmni davlat tominidan bosqichma-bosqich qo'llab quvvatlash sohani rivojlanishida asosiy omil sifatida ko'rsatilgan.

3-jadval

Qishloq hududlarida vinoturizmni rivojlantirishda “Vinariyalar”ning afzalliklari¹⁴

Vinoturizm mezonlari		
“Vinoturizm” so'ziga berilgan ta'rif va uning mazmuni	Qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida vinoturizmning o'rni	Vinoturizm faoliyatining mustaqil komponent sifatida shakllanishi
Vinoturizmni rivojlanish elementlari		
-qishloq xo'jaligi va turizm sohasilarini birlashtiradi; - ko'plab uzumchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlaydi.	-qishloq xo'jaligi korxonalarining hayotiyligini ta'minlaydi; -qishloq xo'jaligining iqtisodiyotini yaxshilaydi; -qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qiladi.	-qishloq xo'jaligi qo'shimcha daromad olib keladi; -fermer xo'jaligini iqtisodiy qo'llab-quvvatlaydi; -qishloq hududlariga turistlar tashrifini oshiradi.
“Vinariyalar” faoliyatning afzalliklari		
Qishloq aholisiga turizmdan foyda keltiradi; qishloq hududlariga vinoturistlar sonini oshiradi; yangi ish o'rinlarini shakllantiradi.		

¹⁴ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

